

## **MAHALLIY VA GLOBAL MIQYOSDA JINOYATLARNI PROGNOZLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI**

***Ismatov Olimjon Shuxrat o‘g‘li***

*Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi,  
Xalqaro hamkorlik bo‘limi bosh mutaxassisi O‘zbekiston Respublikasi  
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura bosqichi tinglovchisi  
E-mail: [olimjonismatov671@gmail.com](mailto:olimjonismatov671@gmail.com)*

### **ANNOTATSIYA**

Maqlada mahalliy va global miqyosda jinoyatlarni prognozlashtirishning istiqbollari olimlarning fikri asosida nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, jinoyatlarni kriminologik prognozlash tizimi va jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha AQSh va Xitoy davlatlari tajribasi o‘rganilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O‘zbekistonda jinoyatlarni oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Zamon o‘zgarib, davlatlar taraqqiy etib borgani sari jinoyatchilikning ham yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Bu esa hukumat vakillaridan jinoyatchilikning oldini olishning yangi yo‘llarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Bugungi globallashuv yuqori bo‘lgan zamonda jinoyatchilikni prognozlash sohasini yangi bosqichga olib chiqish, soha taraqqiyotini ta’minlash muhim vazifaga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmonining 16-maqсадида xам jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbazarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, huquqbazarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish dozarb va istiqbolli vazifalar sifatida ko‘rsatigan.

Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarlik profilaktikasi sohasi 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-oktabrdagi “Jinoiy-huquqiy statistika tizimini tubdan takomillashtirish va jinoyatlarni tizimli tahlil qilish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5566-son Farmoni va boshqa bir qator normativ-huquqiy xujjalilar bilan taritibda solinib kelmoqda.

E’tiborli jihat shundaki, 2018-yil 31-oktabrdagi PF-5566-son Farmoni bilan Bosh prokuratura Akademiyasi tuzilmasida Jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini tizimli tahlil qilish va o‘rganish markazi tashkil etilgan va mazkur markaz oldiga jinoyatlar sodir etilishining sabab va sharoitlarini o‘rganish hamda diagnostika qilish,

huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan, alohida turdag'i jinoyatlarning oldini olish holatini tahlil qilish, jinoyatchilik ahvoli o'zgarishlarini kriminologik prognoz qilish, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini metodologik va konsultativ ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ularning ijro etilishini monitoring qilib borish, jinoyat turlari, jinoyatchi va jabrlanuvchilarining shaxsi bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish kabi bir qator dolzarb vazifalar qo'yilgan.

Jinoyatchilikni oldini olish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Ular orasida, jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mavjud. Xususan, iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlar bilan bog'liq moddalarga sanksiya kuchaytirildi.

Shuningdek, kiber sohadagi va giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha javobgarlik kuchaytirildi. Bu jinoyatlar rivojlanayotgan texnologiyalar va global xavf-xatarlar kontekstida o'sib borayotgan jinoyatlar sirasiga kiradi.

Jinoyatlarning oldini olish va profilaktik choralar sifatida mahallalarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, yoshlarni jinoyatga qarshi tarbiyalashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va huquqni muhofaza qilish idoralari o'rtasidagi hamkorlik yanada kuchaydi. Bunga jamoat xavfsizligi bo'yicha nazoratni takomillashtirish, maxsus profilaktika guruhlarini tuzish va ularni doimiy ravishda jinoyatchilik turlarini kuzatish maqsadida faoliyat yuritishi kabi o'zgarishlarni amalga oshganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Yangi texnologiyalar (**masalan, kiberxavfsizlik, raqamli kuzatuv tizimlari**) jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali vositalarga aylandi. Jinoyatlarni aniqlash va ularni oldini olishda sun'iy intellekt va analitik vositalar keng qo'llanilmoqda.

Jinoyatchilikni prognozlash va uni oldini olish sohasi bundan ancha oldin taraqqiy eta boshlagan. Jumladan, sharqda birinchi Rossiya davlatida jinoyatchilikning statistik tahlili statistika organlari tomonidan jinoyat statistikasi nazariyasi asosida 1801-1823 yillarda amalga oshirilganli bo'lsa-da, biroq, dunyodagi birinchi jinoyat statistikasi hisoboti 1827 yilda Fransiya davlatida rasman nashr etilgan va bu jinoyatchilik hisoboti Adliya vaziri boshchiligidagi fransuz advokati Andre-Michel Gerri (1802-1866) tomonidan tuzib chiqilgan. Uning tadqiqotlarini astronom va matematik tomonidan davom ettirilgan.<sup>1</sup>

Shundan so'ng, A. Quetelet (1796-1874) esa 1826 yilda tug'ilish va o'lim bo'yicha birinchi statistik ishni va 1835-yilda jinoiy-statistik ishni nashr etgan.

<sup>1</sup> М.Усмоналиев, И.Каракетов, Криминология. Дарслик, Тошкент давлат юридик институти. 2001й. 230-бет

A. N. Radishchev (1749-1802) aslida “Qonun hujjatlari to‘g‘risida” (1801) nomi ostida nashr etilgan asarida birinchi qiziqarli kriminologik tadqiqotlarni olib borgan. E’tiborli jihat shundaki, A. N. Radishchev “Qonun hujjatlari to‘g‘risida” asarida juda izchil kriminologik konsepsiya taklif qilingan: jinoyatchilikni va boshqa huquqiy hodisalarni chuqur va keng o‘rganish zarurati asoslandi, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari; Rossiyadagi jinoyatchilikning sabablari, uning ijtimoiy ildizlari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan, shuningdek, jinoiy statistik tadqiqotlar dasturi ishlab chiqilgan, axloq statistikasi asoslari yaratilgan va jinoyatchilikning “fon” hodisalari va ijtimoiy og‘ishlarni o‘rganish boshlangan.<sup>2</sup>

Bugungi kunga kelib, ushbu sohada sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish boshlandi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari jinoyatlarni kriminologik prognozlash sohasi yuzasidan chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishi talab etila boshlandi. Zero, ushbu soha zamonabiy bilimni talab etadi.

Jinoyatlarni oldini olish yuzasidan mahalliy va xorijiy tajriba yuzasidan ma’lumot berishdan oldin, “jinoyatchilik” va “prognozlash” degan tushunchalar ta’rifini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jinoyatchilik deganda, shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy hayot farovonligiga, iqtisodiy rivojlanishiga va siyosiy barqarorligiga rahna soluvchi uzoq vaqt davomida kompleks kurashishni talab qiladigan ijtimoiy havfli qilmishni sodir etish tushuniladi.

Jamiyat uchun xavfli xatti-harakatga “jinoyatchilik” deb ataladi. Demak, jamiyatning jinoyatchilikka qarshi kurashishining sababi — o‘zini xavf-xatardan himoya qilish ekan.

Prognozlash terminining etimiologik ta’rifiga kelsak, prognoz so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, «rgognoziya» so‘zidan olingan, «oldindan ko‘rish», ya’n oldindan ilmiy bashorat qilish ma’nosini beradi.

Prognoz - bu istiqboldagi voqeа, hodisalarning ilmiy modeli hisoblanadi, ya’ni keljakda ob’ektning ehtimoliy holati haqida yoki bu holatga erishishning muddatlari va alternativ yo’llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalardir. Prognozlashtirish deganda esa prognozni ishlab chiqish, ya’ni ma’lum bir jarayonning rivojlanish aniq kelajagini maxsus ilmiy tadqiq etishdir. Qisqacha qilib aytganda, prognozlashtirish prognozni ishlab chiqish jarayonidir.

Jinoyatchining sodir bo‘lishini shunchaki statistik raqamlarga asoslanib, prognoz qilishning o‘z samarasi bermayotganligi hech kimga sir emas.

Jinoyatlarni sodir etilishini oldindan prognoz qilish anchayin murakkab jarayon hisoblanadi va ilmiy izlanishni talab etadi.

<sup>2</sup> М.Усмоналиев, И.Каракетов, Криминология. Дарслик, Тошкент давлат юридик институти. 2001й. 232-бет

Soha mutaxassislari o‘rtasida jinoyatchilikni baroshat qilish va prognozlashtirish tushunchalari asosan farqlanmaydi.

Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur sohada turli davrda yashagan turli davlatlarning kriminologlari turlicha tushunchalarni ishlataladilar. Misol uchun jinoyatchilikning kriminologik bashorati, jinoyatchilikning kriminologik prognozi, jinoyatchilikning kriminologik tahlili va hokazolar. Ammo, bu tushunchalar bir-biriga funksional yaqin tushunchalar bo‘lsa ham mazmun jihatdan birmuncha farqlanadi.

Bashorat qilish negizida insonning ichki instiki yoki ko‘p yillik tajribasi asosida taxminiy xarakterdagi fikrlar yotsa, prognozlashning asosini esa ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalar tashkil etadi.

Yana bir farqli jihatlaridan biri shundan iboratki, baroshat qilish va prognozlashtirishning ishlab chiqish jarayonlari yakunlaridan kutiladigan natijalarning xususiyatlari ham bir biridan farqlanadi.

Misol uchun, bashorat qilishda sodir etilgan va sodir etilishi mumkin bo‘lagan holatning o‘zi yoki to‘plangan amaliy tajribalarga tayaniladi hamda aniq natijalar ko‘rsatib o‘tilmaydi.

Prognozlashtirish esa konkret natijani olishga yo‘naltiriladi, natijalar ko‘rsatib beriladi, ilm-fanda erishilgan yuqtular va qonuniyatlardan foydalaniladi. Xususan, matematik yoki mantiqiyning qonuniyatlaridan keng foydalaniladi.

Yuqorilardan kelib chiqqan holda, jinoyatchilikning dinamikasi, uning kelajakdagi strukturasi, kelib chiqish sabablari va ularga imkon bergen yoki berishi mumkin bo‘lgan shart-sharoitni tahlil qilishda kriminologik prognozlash terminini qo‘llash o‘rinli bo‘lardi.

Krimprogoz qilish muayyan vaqt mobaynida jinoyatchilikning darajasi, strukturasi va dinamikasida qanday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligi, uning determinantlari va oldini olish chorralari xamda unga ta’sir qilishning boshqa vositalari haqida e’timol tutilagn mulohazalar hisoblanadi.

Jinoyatchilikni progoz qilishda olinayotgan vaqt mobaynida taxmin qilinayotgan vaziyatlar bilan bir qatorda bir qancha boshqa aspektlar ham e’tiborga olinadi.

Xususan, butun mamlakat miqyosida bo‘layotgan va bo‘ladigan o‘zgarishlar, muayyan xududlardagi o‘ziga xoslik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvol krimprognозni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun muayyan hududda yashovchi shaxslarning o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etishi, o‘sha hududda yashab kelayotgan shaxslarning qashshoqligi ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ba’zi mamlakatlarda sun’iy intellektni rivojlantirish davlatning strategik hujjalarda mustahkamlangan muhim ichki siyosiy vazifadir. Bunday mamlakatlardan biri Xitoy Xalq Respublikasi bo‘lib, uning asosiy afzalligi 176

milliondan ortiq kuzatuv kameralariga va politsiya ma'lumotlar bazalarida katta miqdordagi turli ma'lumotlarga ega bo'lishidir. Bu esa jinoyatlarni oldini olish tizimlarining samarali ishlashini ta'minlash imkonini beradi. Hozirda Xitoyda fuqarolarni xulq-atvorini nazorat qilish tizimi (ijtimoiy ishonch tizimi) faol joriy etilmoqda, bu tizim Xitoyning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash va siyosiy tartibni saqlash kafolatini berish maqsadida yaratilgan.

Jahonning eng katta ma'lumotlar loyihiboridan biri huquqni muhofaza qilish sohasida Xitoy Xalq Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan yaratilgan "Police Cloud" tizimidir. Ushbu tizim turli xil ma'lumotlarni integratsiya qilishni nazarda tutadi, jumladan, Xitoy politsiyasi tomonidan muntazam ravishda yig'ilgan ma'lumotlar hisoblanadi(yashash manzillari, oila a'zolari, tug'ilishni nazorat qilish usullari, diniy aloqalar va h.k.). Uning yaratilishi 2015-yilda boshlangan bo'lib, Xitoy provinsiyalarida politsiya ma'lumotlarini saqlash uchun bulutli omborlar yaratishdan boshlanib, hozirda kengayib bormoqda.

Xitoyda ishlatilayotgan tahlil va prognozlash modellari orasida **Guanchjou** shahridagi **Cloud Walk** kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yuzni aniqlash tizimi ulkan muvafaqqiyat qozongan hisoblanadi. Ushbu tizim shaxslar harakatlarini kuzatib boradi, shubhali shaxsning qachon va qayerga borganini va nima qilganini hisobga olib, jinoyat sodir etish ehtimolini prognoz qiladi. Masalan, agar bir kishi qurol do'koniga tez-tez tashrif buyuradigan bo'lsa va xo'jalik do'konlarida jinoyatga oid deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarni (pichoq, bolg'a, ip, xaltacha va boshqalar) sotib olsa, bu shaxsning shubhali reytingi avtomatik ravishda oshiriladi. Ushbu dasturiy ta'minot hozirda mamlakatning 50 dan ortiq shaharlari va provinsiyalarida ishlatilmoqda va real vaqtda shubhali shaxslarga ishora qiladi.

Bundan tashqari, Xitoyda sun'iy intellekt asosidagi boshqa tizimlar ham mavjud. Yoqilgan mobil ilova yordamida yo'qolgan bolalarni izlash tizimi, yana bir xitoylik kompaniya UniView, boshqa mamlakatlarga tez-tez sayohat qiladigan odamlarni kuzatib boradi. 2021-yil 1-yanvardan boshlab Xitoyda "ixtisosiy kredit" tizimi rasmiy ravishda qabul qilindi va huquqiy jihatdan mustahkamlandi, bunda har bir fuqaroning boshlang'ich reytingi mavjud. Keyinchalik har bir odamning harakati tahlil qilinadi va unga ballar beriladi. Yig'ilgan ballar miqdoriga qarab, turli sohalarda har xil xizmatlardan foydalanish imkoniyati belgilanadi.

Ijtimoiy reyting uchta sohadan iborat hisoblanadi:

- 1) davlat sohasida (soliqlarni va hisoblarni to'lash, kreditlarni yopish va h.k.);
- 2) ijtimoiy soha (yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, tug'ilish normativlari, ish va ta'limda halollik va h.k.);
- 3) internetda xulq-atvor (foydalanuvchilar bilan muloqot madaniyati, joylashtirilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, onlayn-do'kondan xaridlar va h.k.).

Barcha bu ma'lumotlar yagona bazaga yig'iladi va maxsus algoritm har bir shaxsning ijtimoiy reyting balini hisoblaydi.<sup>3</sup>

Shuningdek Amerika jinoyatlarni prognozlash tajribasi ham dunyodagi eng obro'li, rivojlangan va qadimgi maktablardan biri hisoblanadi. AQShning jinoyatlarni prognoz qilish faoliyatidagi tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi, bu prognozlashning obyektlari, subyektlari va sohalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Prognozlar ishlab chiqish AQShda professional tayyorgarlikka ega xodimlar tomonidan amalga oshiriladi, bu jarayon iqtisodiy nazariya, matematika usullari, elektron hisoblash texnikasi sohalaridagi so'nggi yutuqlarni hisobga olgan holda davlat muassasalari va yirik tijorat tashkilotlari (kompaniyalar) uchun shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Prognozlash subyektlari nafaqat federal davlat hokimiyati organlari muassasalari, balki tashqi tashkilotlar, jumladan, xususiy tadqiqot markazlari, moliyaviy korporatsiyalar, konsalting kompaniyalari va boshqalar ham bo'lishi mumkin.<sup>4</sup>

Davlat darajasida prognoz hujjatlarini ishlab chiqish grantlar tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, bu ishni AQShning Byudjet boshqaruvi amalga oshiradi.

Amerika jamiyatining strategik vazifalari va rivojlanish yo'nalishlari (AQShning yashash konsepsiysi) belgilangan eng muhim strategik boshqaruvi hujjati – Milliy xavfsizlik strategiyasidir. Ushbu hujjat odatda prezidentlik muddati davomida shakllantiriladi.<sup>5</sup> Biroq, Yevropa Ittifoqi davlatlarining strategik rejalshtirish hujjatlaridan farqli o'laroq, AQShning Milliy xavfsizlik strategiyasi nafaqat ekologiya, harbiy va ijtimoiy xavfsizlik sohalarini o'z ichiga oladi, balki davlat va ijtimoiy faoliyatning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan 4 guruh muammolari ya'ni, xavfsizlik, jamiyat, qabul qilingan qadriyatlar va xalqaro tartibni ham o'zida mujassam etadi.

Huquqni muhofaza qilish strategiyasiga kelsak, AQShda prognozlash analitikasi 7 shtatda (Alabama, Arizona, Nyu-York, Tenesi, Illinoys, Janubiy Karolina va Kaliforniya) tajriba sifatida joriy etilgan. AQShda jinoyat statistikasining asosiy rasmiy manbai **UCR** (Uniform Crime Report) dasturi bo'lib, bu dastur politsiya hududiy organlari tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga asoslanadi.<sup>6</sup>

AQShning huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan samarali foydalanilayotgan tahliliy vositalardan biri 2014-yilda Kaliforniya universiteti tomonidan ishlab chiqilgan “PredPol” dasturidir. Ushbu dastur, ma'lum bir

<sup>3</sup> Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 10 (67) Том 4. ОКТЯБРЬ 2023 г.

<sup>4</sup> Зарубежный опыт государственного прогнозирования, стратегического планирования и программирования: монография / под ред. С. Ю. Глазьева, Ю. В. Яковца. Москва, 2008

<sup>5</sup> Актуальный опыт зарубежных стран по развитию государственных систем стратегического планирования / А. В. Клименко, В. А. Королев, Д. Ю. Двинских, Н. А. Рычкова, И. Ю. Сластихина. Москва, 2016. Ч. 2.

<sup>6</sup> О'Брайен Р. Факты преступности: сведения о правонарушителях и их жертвах // Криминология / под ред. Дж. Ф. Шелли / пер. с англ. Санкт-Петербург, 2003.

hududdagi jinoyat holatini tahlil qilib, potensial huquqbazarliklarning yuz berishi mumkin bo‘lgan joylarini aniq prognoz qilishga yordam beradi. Bunday “issiq nuqtalar” politsiya patrullarining elektron xaritalarida qizil rangda ko‘rsatiladi va ular oldindan belgilangan joylarga yuboriladi. Shunga o‘xshash “CrimeScan Program” dasturi Pittsburgh shahrida amalga oshirilmoqda.

2019-yildan boshlab, “PredPol” dasturi AQShning “GovTech100” ro‘yxatiga kiritildi va jinoyat prognozlash sohasidagi eng yaxshi innovatsion texnologik mahsulot sifatida tan olindi.

Deyarli barcha transport vositalarini avtomatik ravishda aniqlash texnologiyasi – AVL (Auto Vehicle Locator) yordamida San-Fransisko shahridagi politsiya boshqarmasi yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish, shuningdek, jamoat transporti, tez tibbiy yordam va qishloq xo‘jaligi texnikasining ishini optimallashtirish maqsadida keng foydalanadi. Dastur faqat transport vositasining joylashuvi emas, balki uning barcha parametrlarini (g‘ildirakdagi bosimdan tortib, mashinaning ichki haroratigacha) uzlusiz uzatishga imkon beradi, bu esa bugungi kunda texnologik jihatdan mumkin hisoblanadi.<sup>7</sup>

Doimiy xaritalash va yo‘l harakati ishtirokchilarining geoma’lumotlarini tahlil qilish shahar hokimiyatiga yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishga yordam berdi va “himoyalangan chorrahalar” tarmog‘ini yaratdi.

Politsiya jinoyatlarni oldini olish va tergov qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar platformalaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Politsiya boshqarmalari Twitter, Facebook va YouTube kabi ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etadi. Maxsus dasturiy platformalar sifatida Postacrime, Spotcrime yoki CrimeReports ishlataladi.

Prognozlash algoritmlari nafaqat olimlar va jurnalistlarning, balki AQShning jinoiyat tizimida ham keng qo‘llanilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda bu tizimda qarashda o‘zgarishlar bo‘lib, bu usul statistik usullarga asoslanadi va jinoyat xavfini, qayta jinoyat qilish yoki sudga kelmaslikni baholashda ishlataladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, jinoyatlarni kriminologik tahlil etish tizimini isloh etish, ushbu sohada mavjud bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni zamon talablariga mos ravishda shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni sohaga tatbiq etish muhim hisoblanadi. Shu sababli soha taraqqiyotini ta’minlab beruvchi yangiliklarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etilishida hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va kamchiliklarni oldini olish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, Jinoyatlarni prognozlash tizimlarida sun’iy intellekt (AI) va mashina o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashni kengaytirish. Ushbu texnologiyalar, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatlarning ehtimoliy joylari va vaqtlarini aniqlashga yordam beradi.

<sup>7</sup> Туробов А., Чумакова М., Вечерин А. Международный опыт применения математико-статистических алгоритмов прогнозирования преступности // Международные процессы. № 4 (59). Т. 17.

Ikkinchidan, Jinoyatlarni prognozlash tizimlarida ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash va ularga kerakli bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish. Prognozlash sohasidagi mutaxassislar ijtimoiy tahlil, sun’iy intellekt, statistika va huquqni muhofaza qilish sohalarida chuqur bilimlarga ega bo‘lishlari kerak.

Uchinchidan, Video-kuzatuv kameralarini, aksessuar sensor qurilmalarini kengaytirish orqali jinoyatlarning oldini olish va ularni tezkor tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish.

To‘rtinchidan, Har bir mintaqadagi jinoyat turlarining o‘ziga xosligini aniqlash va prognozlashda shu xususiyatlarni hisobga olish. Masalan, ba’zi hududlarda o‘g‘irlik, mol-mulkni talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘proq uchraydi, boshqalarida esa iqtisodiy jinoyatlar yoki korrupsiya holatlari ko‘proq uchraydi.

Beshinchidan, Jinoyatlarni prognozlashda shaxsiy ma’lumotlarning himoyasini ta’minalash. Bu jarayon, ayniqsa, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni ishlatish jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki noto‘g‘ri ishlatilgan ma’lumotlar huquqiy va axloqiy muammolarga olib kelishi mumkin.

### **Iqtiboslar/Snoski/References:**

1. M.Usmonaliev, I.Karaketov, Kriminologiya. Darslik, Toshkent davlat yuridik instituti
2. Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 10 (67) Том 4. ОКТЯБРЬ 2023 г.
3. Зарубежный опыт государственного прогнозирования, стратегического планирования и программирования: монография / под ред. С. Ю. Глазьева, Ю. В. Яковца. Москва, 2008
4. Актуальный опыт зарубежных стран по развитию государственных систем стратегического планирования / А. В. Клименко, В. А. Королев, Д. Ю. Двинских, Н. А. Рычкова, И. Ю. Сластихина. Москва, 2016. Ч. 2.
5. О.Брайен Р. Факты преступности: сведения о правонарушителях и их жертвах // Криминология / под ред. Дж. Ф. Шелли / пер. с англ. Санкт-Петербург, 2003.
6. Туробов А., Чумакова М., Вечерин А. Международный опыт применения математико-статистических алгоритмов прогнозирования преступности // Международные процессы. № 4 (59). Т. 17.